

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
IQTISODIYOT KAFEDRASI**

«QISHLOQ XO`JALIGI IQTISODIYOTI»

fanidan

**ta`lim texnologiyasi bo`yicha
Bakalavriat bosqichi talabalari uchun**

NAMANGAN – 2014

Ma'sul muharrir: **S.Abdullayev** – NamDU iqtisodiyot kafedrası dotsenti
Tuzuvchilar: **K.I.Sirojiddinov**- NamDU Iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi.
R.N.Imomov- NamDU Iqtisodiyot kafedrası stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchisi

Taqrizchilar:

N.Sotvoldiyev – NamDU “Iqtisodiyot” kafedrası mudiri, i.f.n., dotsent.
K.Boymirzayev –NamDU, “Goegrafiya” kafedrası dotsenti, g.f.n.

“Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti” fanidan “Ta'lim texnologiyasi” bo'yich uslubiy qo'llanma «Iqtisodiyot» kafedrasining 26.04.2012 yil 9 - sonli majlisida, «Ijtimoiy-iqtisodiy» fakultet uslubiy komissiyasining 28.04.2012 yil 9-sonli majlisida va “Ijtimoiy-iqtisodiy” fakultetining 30.05.2012 yil 9-sonli Ilmiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

K I R I S H

Mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining o'rni va ahamiyati ulkan. Kelajakda respublika iqtisodiyotini barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun qishloq xo'jaligini yuksaltirish ob'ektiv zaruriyat hisoblanadi.

Qishloq va turmush darajasini yuksaltirishga ishlab chiqarish munosabatlarining mazmun-mohiyatini o'zgartirishga ASMDa olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirishga, xususiy fermer xo'jaliklari o'z mohiyatiga ko'ra qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning asosiy shakliga, sohani barqaror va samarali rivojlantirishni ta'minlaydigan chora-tadbirlar tizimini belgilab berdi.

Talabalarga mazkur fan xususiyatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarida keltirilgan materiallar, qoidalar va xulosalarni puxta o'zlashtirishlari, kelgusi faoliyatida samarali foydalanishlari hamda ijodiy yondashishlarini ta'minlash fanni o'rganish oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Bugungi kunda mamlakatimiz qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish masalasi sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini oshirish bo'yicha hamda qishloqni rivojlantirish o'ta muhim vazifani hal etish bilan bevosita bog'liqdir. Bu vazifalar 2009 va undan keyingi yillar biz uchun asosiy ustuvor bo'lishi zarurligi.

Qishloq xo'jaligini bozor iqtisodiyoti qonunlari talablari darajasida rivojlantirish uchun tarmoqda erkin faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan turli xildagi mulk shakllarini, ularga asoslangan tadbirkorlik turlari va ular o'rtasidagi erkin bozor munosabatlarining nazariy, uslubiy asoslarini erkinlashtirish, takomillashtirish, investisiyalarni jalb etib, fan-texnika yutuqlarini, yangi texnikalarni, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, barcha resurslardan, kapitaldan to'liq va samarali foydalanish yo'llarini belgilash, barcha xarajatlarni tejash, mehnat unumdorligini yuksaltirish, ularni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish hamda foyda summasini ko'paytirish yo'llarini asoslangan holda belgilab olish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan asosiy iqtisodiy munosabatlarning, tushunchalarning mazmun va mohiyatini respublika makroiqtisodiyot va statistika hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirliklari ma'lumotlaridan foydalanib, jadvallar, diagrammalar, grafiklar yordamida yoritishga intildik.

Ushbu fan «Mikroiqtisodiyot», «Jahon qishloq xo'jaligi», «Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini boshqarish», «Statistika», «Agrosanoat majmui iqtisodiyoti»«Makroiqtisodiyot», «Menejment» kabi fanlar bilan uzviy bog'liqdir.

Barcha mavzularning mazmuni, mohiyati va ahamiyatini ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarda talabalarga mazmunli va tushunarli qilib etkazishda talabalarni guruhlashtirib, ilg'or axborot texnologiyasi hisoblangan «Muammoli ta'lim», «Aqliy hujum», «Klaster», «Bumerang», «Interaktiv» usullaridan hamda kompyuterlardan, Power Point dan, slaydlardan, jadval va grafiklardan va boshqalardan foydalanish zarur.

**“QISHLOQ XO`JALIGI IKTISODIYOTI” O`QUV KURSI BO`YICHA TA`LIM
TEKNOLOGIYASINING KONTSEPTUAL ASOSLARI**

1	«Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti» fanining dolzarbligi va o`qitish strukturasi
---	--

Hozirgi vaqtda butun dunyoda, shuningdek O`zbekistonda ham iqtisodiyotning ishlab chiqarish, xususan qishloq xo`jaligi sohasiga e`tibor tobora kuchayib bormoqda. Insoniyat har doim o`zining harakat doirasini o`zgartirib, yangiliklarni kashf qilishiga intilgan. XX asrga kelib bunday intilishlar kuchaydi va qishloq xo`jaligining rivojlanishiga turtki bo`ldi. Ayrim mamlakatlarda qishloq xo`jaligi sohasi juda ham barqaror rivojlanib bormoqda va ularning har yillik o`sish sur`ati 8%-10% gacha boradi. Bular qishloq xo`jaligi sohasining qanchalik darajada mamlakatlar iqtisodiyoti tizimida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. SHunisi qiziqki, qishloq xo`jaligi sohasini rivojlanishi natijasida transport, bozor infratuzilmasi, savdo-sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari, qurilish, hunarmandchilik va boshqa xizmat ko`rsatish tarmoqlari ham rivojlanib boradi.

O`zbekiston Respublikasi o`z mustaqilligiga erishgach, mamlakat iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirishning ma`muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor vositalariga asoslangan iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solish tizimiga o`tish zaruriyati paydo bo`ldi. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va boshqarishning bozor vositalari orasida qishloq xo`jaligi infratuzilmasi eng muhim o`rinni egallaydi. Bu borada davlatning qanday siyosat yuritayotganligi va qishloq xo`jaligi sohasidagi chora tadbirlari qanchalik samarali ekanligi ko`p jihatdan iqtisodiy islohatlarning xarakteri va dinamikasini belgilaydi. Oqilona tashkil etilgan, puxta rejalashtirilgan qishloq xo`jaligi sohasi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning hamda shu asosda barqaror iqtisodiy rivojlanishishga erishishning asosiy omillaridan biridir. SHu sababli «qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti» o`quv kursida qishloq xo`jaligi korxonalarini tashkil etish, qishloq xo`jaligida ishlab chiqarish infratuzilma xizmatlari, davlat tomonidan tartibga solinishi, soliq, sug`urta, va qishloq xo`jaligi iqtisodiyotining boshqa omillari bo`yicha dolzarb masalalar aks ettirilgan. Ushbu o`quv kursda qishloq xo`jaligi iqtisodiyotining ahamiyati, zarurligi va funktsiyalari, O`zbekiston Respublikasidagi va boshqa xorijiy mamlakatlardagi qishloq xo`jaligi iqtisodiyotini tashkil etuvchi omillar va ularning faoliyati kabi mavzularni qamrab olgan.

*Fanni o`rganishdan asosiy maqsad* – talabalarda iqtisodiyotni erkinlashtirish va inqiroz sharoitida qishloq xo`jaligi iqtisodiyotining nazariy va amaliy masalalari to`g`risida talab qilinadigan bilimlarni erkin bozor qonun va qonuniyatlari asosida shakllantirishdan iboratdir.

Fanning maqsadi quyidagi vazifalarni hal etishni talab etadi:

- Jahon respublika iqtisodiyotida qishloq xo`jaligining o`rmini, ahamiyatini anglab etish;
- tarmoqdagi amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy islohotlar, ularni chuqurlashtirish yo`nalishlarini o`rganish;
- tadbirkorlik shakllarini rivojlanishini, samaradorligini, FTT, innovasion texnologiyalar, ularga bo`lgan talab, ularni iqtisodiy baholashni amalga oshirish hamda ulardan foydalanish samaradorligini o`rganish;
- xarajatlar, ularni kamaytirish, daromadlar, foyda, ularni ko`paytirish yo`llarini, mahsulotlarni ishlab chiqarish, ularni samarali taqsimlash, tarmoqdagi baholar tizimi, ularni taqsimlashtirish va tarmoqlar iqtisodi, ularga iqtisodiy baho berish hamda rivojlantirish yo`llarini o`rganish.

1-mavzu: Kursning predmeti, maqsadi, vazifasi hamda tadqiqot usullari

Qishloq xo'jaligi jahon iqtisodiyotining, respublika xalq xo'jaligining muhim tarmog'i ekanligi. Uning maqsadi va vazifasi. Qishloq xo'jaligini tarmoq sifatida o'ziga xos xususiyatlari. Jahon qishloq xo'jaligining inqiroz sharoitidagi holati. Inqiroz sharoitida qishloq xo'jaligini iqtisodiy, ijtimoiy ahamiyati. Tarmoqda erkin bozor iqtisodiyotini shakllantirish bosqichlari. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan hukumatning tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlari. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Fandagi foydalaniladigan tadqiqot usullari. Uning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

2-mavzu: Jahon, respublika qishloq xo'jaligi, uning joylashishi, ixtisoslashishi, uni jahon moliyaviy-ishlab chiqarish inqirozi sharoitida rivojlanishi

Qishloq xo'jaligini joylashtirish, ixtisoslashtirish hamda kooperasiyalashtirish. Qishloq xo'jaligini joylashtirish va ixtisoslashtirishning tamoyillari va omillari.

Ixtisoslashtirish turlari. Qishloq xo'jaligida kooperasiyalashtirish va agrosanoat integrasiyalashtirish. Gorizontaal hamda vertikal integrasiyalashtirish. Xo'jaliklararo kooperasiyalashtirish. Qishloq xo'jaligini joylashtirish, ixtisoslashtirish darajasi va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash uslubiyoti. Inqiroz davrida jahon, respublika viloyatlari hududlarida qishloq xo'jaligini joylashtirishning, ixtisoslashtirishning holati. Qishloq xo'jaligini joylashtirish, ixtisoslashtirish va kooperasiyalashtirishni rivojlantirish yo'llari.

3-mavzu: Respublika agrosanoat majmuasi, uni inqiroz sharoitida rivojlantirish imkoniyatlari.

O'zbekiston Respublikasining agrosanoat majmuasini barpo etishning zarurligi, mumkinligi. Uning huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy asoslari. Respublika agrosanoat majmuasining maqsadi, vazifalari hamda tarkibi, bo'g'inlari. Bo'g'inlararo tashkiliy, tarkibiy, iqtisodiy uzviy bog'liqlik. Agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlar uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, ularning o'ziga xos xususiyati, maqsad hamda vazifalari. ASM tarkibidagi qishloq xo'jaligini rivojlanishini ta'minlashga xizmat ko'rsatuvchi bo'g'in, uning tarkibi, maqsad va vazifalari. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi, tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga etkazib beruvchi bo'g'in, uning maqsadi va vazifalari. Agrosanoat majmuasiga oid chet el tajribalari, ularni mamlakat agrosanoat majmuasida qo'llash imkoniyatlari. Respublika agrosanoat majmuasini mamlakat oziq-ovqat va iste'mol majmuasi hamda davlat oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liqligi. Mamlakat agrosanoat majmuasini istiqbolda bozor talablarini e'tiborga olgan holda rivojlantirish masalalari.

4-mavzu: Bozor iqtisodiga o'tishda qishloq xo'jaligiga davlat rahbarligi va amalga oshirilayotgan agrar – iqtisodiy islohotlar

Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan rejali iqtisodiyot. Respublika qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarining shakllanishining ob'ektiv zarurligi. Davlatning agrar siyosati, qishloq xo'jaligining asosiy maqsadini hal etishda davlat rahbarligi, homiyliqi. Qishloq xo'jaligida agrar-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi asosiy tamoyillar. Qishloq xo'jaligida yer, mulk, baho, soliq, moliya va kredit islohoti. Qishloq xo'jaligida agrar-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda chet el tajribalaridan foydalanish imkoniyatlari. Qishloq xo'jaligida agrar-iqtisodiy islohotlarni yanada erkinlashtirish va chuqurlashtirish hamda takomillashtirish masalalari.

5-mavzu: Qishloq xo'jaligida mulk va tadbirkorlik shakllari, ularning bozor rivojlanishi.

Qishloq xo'jaligida bozor iqtisodiyoti sharoitida turli xildagi mulkchilik turlarini barpo etishning zarurligi. Mulkiy islohotlar. Turli shakldagi mulk turlarining shakllantirilishi. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik shakllari. Mulkiy munosabatlar. Xususiy va shaxsiy mulk unga asoslangan tadbirkorlik shakllari. Dehqon va fermer xo'jaliklari, ularning hozirgi holati va rivojlanishi. Qishloq

xo'jalik kooperativlari, (agrofimlar) va qo'shma korxonalar. Qishloq xo'jaligida ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllanishi va rivojlanishi.

6-mavzu: Yer -suv resurslari, inqiroz sharoitida ulardan foydalanish masalalari.

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer-suv resurslari, ularning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati. Yer-suv resurslari, ularning miqdori, turlari va tarkibi. Yer-suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishga oid hukumatning chora-tadbirlari.

Yer kadastri, uning mazmuni. Yer-suvdan foydalanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Qishloq xo'jalik yerlarini baholash. Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirishda davlatning roli. SFU. Yer-suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirishda irrigatsiya – melioratsiya tadbirlari. 2008-2012 yillarda Respublika irrigatsiya-melioratsiyani rivojlantirish bo'yicha Davlat dasturining ahamiyati.

7-mavzu: Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari, fan-texnika taraqqiyoti, innovasion texnologiyalar va ulardan samarali foydalanish.

Davlatning innovasion siyosati. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari va ularning xususiyatlari. Fan-texnika taraqqiyotiga oid chet el ilg'or tajribalari. Ilg'or va samarali texnologiyalar, ularning turlari va bozori. Moddiy-texnika resurslarini baholanishi. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashganlik, elektrlashganlik, avtomatlashtirilganlik hamda ximizatsiyalashganlik darajasi. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanishda paxtachilikdagi "Andijon texnologiyasi"ning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi. Zamonaviy, samarali, ekologik jihatdan foydali hisoblangan texnikalarni, kimyoviy vositalarni, yoqilg'ilarni, texnologiyalarni yaratish.

8-mavzu: Qishloq xo'jaligining asosiy va aylanma vositalari, fondlari va ulardan samarali foydalanish

Asosiy va aylanma vositalar haqida tushuncha, ularning iqtisodiy mazmuni. Qishloq xo'jaligining asosiy va aylanma fondlari, ularning ahamiyati. Doimiy va o'zgaruvchan kapital. Asosiy va aylanma vositalarni baholash. Asosiy va aylanma vositalar tarkibi. Asosiy va aylanma vositalardan foydalanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Hozirgi davrda asosiy va aylanma vositalar bozori. Asosiy vositalar ijarasi. Korxonaning moliyaviy mablag'lari. Aylanma kapital. Chetdan jalb etilgan mablag'lar

Asosiy vositalarning eskirishi. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash usullari. Korxonalarni moddiy-texnika bazasi. Asosiy va aylanma vositalardan foydalanishning hozirgi holati, ulardan foydalanishni yaxshilash, samaradorligini oshirish yo'llari.

9-mavzu: Mehnat resurslari, ularning bozori, ulardan foydalanish va mehnat unumdorligi

Respublika qishloqlaridagi aholi. Mehnat va mehnat resurslari. Mehnat resurslarining huquqiy asoslari. Mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish. Hozirgi sharoitdagi mehnat bozori. Mehnat resurslaridan to'liq va samarali foydalanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Mehnat resurslariga bo'lgan talab. Mehnat balans. Mehnat resurslaridan foydalanishning hozirgi darajasi. Mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar. Rivojlangan davlatlardagi mehnat unumdorligiga oid ilg'or yutuqlar. Rivojlanish, inqiroz sharoitida mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish yo'llari.

10-mavzu: Investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) manbalari, ularning iqtisodiy samaradorligi

Investitsiya haqida tushuncha, uning iqtisodiy mazmuni va ahamiyati. Investitsiya (kapital qo'yilma) turlari. Investitsiyalarning huquqiy asoslari. Investitsiya (kapital qo'yilma) borasidagi davlatning siyosati. Investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) dan foydalanishning iqtisodiy

samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Qishloq xo'jaligida investisiyalarga bo'lgan talab. Ichki va tashqi investisiyalarni jalb etish. Agrar sohadagi investision muhit investisiyalarni qishloq xo'jaligiga jalb etishning hozirgi holati. Investision loyihalarni baholash usullari. Irrigatsiya va melioratsiyaga, yangi texnika, samarali investision texnologiyalarga, chorvachilikka va boshqa sohalarga sarflayotgan investisiyalar, ularning iqtisodiy, ijtimoiy samaradorligi. Investisiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.

11-mavzu: Qishloq xo'jaligida servis, uni rivojlantirish yo'llari.

Servis haqida tushuncha, uning mazmuni, mohiyati. Qishloq xo'jaligida servisning zarurligi, ahamiyati. Hukumatning qishloqda servisni rivojlantirish borasidagi tadbirlari. Tarmoqdagi servis tizimi. Servis turlari, sub'ektlari. Infratuzilma turlari.

Qishloq xo'jaligidagi servisning hozirgi holati. Uning muammolari. Servis bo'yicha chet el tajribalari. Qishloq xo'jaligida servisni rivojlantirish masalalari.

12-mavzu: Qishloq xo'jaligidagi (yalpi va o'rtacha) xarajatlar, ularni kamaytirish yo'llari

Qishloq xo'jaligida turli xildagi xarajatlar qilishning ob'ektiv zarurligi. Xarajatlarning huquqiy va me'yoriy asoslari. Doimiy xarajat. O'zgaruvchan xarajat. Joriy va o'rtacha xarajat. Uzoq va qisqa muddatli xarajat. Qo'shimcha xarajatlar. Ishlab chiqarish. Davr, moliyaviy hamda ko'zda tutilmagan xarajatlar. Qishloq xo'jaligi korxonalarining xarajatlari (turlari bo'yicha) darajasi. Tarmoqda etishtirilayotgan mahsulotlarning o'rtacha xarajatlari (tannarxi). O'rtacha xarajatga ta'sir etuvchi omillar. Xarajat turlarining mahsulot tannarxidagi salmog'i. Qishloq xo'jaligida xarajatlarni tejash yo'llari. Shu boradagi Davlatning siyosati.

13-mavzu: Qishloq xo'jaligining yalpi va tovar mahsuloti, ularning taqsimlanishi va ko'paytirish yo'llari

Qishloq xo'jaligining yalpi va tovar mahsuloti. Tarmoqning yalpi va tovar mahsulotiga bo'lgan talabi. Yalpi mahsulot turlari. Yalpi mahsulotni baholash turlari.

Dehqonchilik, chorvachilikning yalpi mahsuloti. Yalpi mahsulotni taqsimlash va sotish yo'llari. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining tovarlilik darajasi. Qishloq xo'jalik mahsulotlar bozori. Yalpi mahsulotini ko'paytirish yo'llari. Ekstensiv va intensiv yo'llar.

14-mavzu: Qishloq xo'jalik mahsulotlarining baholari, ularning takomillashtirilishi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar-pul munosabatlari. Qishloq xo'jaligida qiymat qonunining harakat qilishi. Baho (narx). Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulotlarning, xizmatlarning baholarini belgilash tartibi. Shu boradagi Davlatning siyosati. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining, xizmatlarining baholari, ularning amaldagi darajasi, dinamikasi. Ishlab chiqarish resurslari, qishloq xo'jalik mahsulotlari baholari. Sanoat mahsulotlari bilan qishloq xo'jalik mahsulotlari o'rtasidagi mutanosiblik. Davlat buyurtmalariga o'rnatiladigan baholar. Dotasiya va subsidiya. Rivojlanish, inqiroz sharoitida qishloq xo'jaligidagi baholarning takomillashtirish yo'llari.

15-mavzu: Korxonalarning daromadlari, foydalari, ularning taqsimlanishi. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi

Qishloq xo'jaligida korxonalarda takror ishlab chiqarish, uning turlari, ularni korxona ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishdagi ahamiyati. Qishloq xo'jaligida yaratilgan yalpi ichki mahsulot, korxonaning yalpi va pul daromadi, ularning ahamiyatini hisoblash tartibi. Daromadlarni hozirgi davrda taqsimlash tartibi, uni takomillashtirilishi. Korxona foydasi haqida tushuncha, uning turlari, ularning ahamiyati va hisoblash tartibi. Yalpi, sof, iqtisodiy foyda. Tarmoqning iqtisodiy samaradorligi haqida tushuncha, uning darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi. Tarmoqning yalpi ichki mahsulotini, yalpi va pul daromadini, yalpi va sof foydasini o'tish davridagi darajasi, dinamikasi. Tarmoqning yalpi ichki mahsulotini, korxonalarning yalpi va pul daromadlarini hamda foydalarini ko'paytirish masalalari.

16-mavzu: O'simlikchilik tarmoqlari iqtisodi

O'simlikchilik tarmoqlari. Tarmoqlarda yetishtirilayotgan mahsulotlar. Ularning ahamiyati. O'simlikchilik tarmoqlarining rivojlanishi. Samaradorlik darajasini isbotlovchi ko'rsatkichlar. Ekinlarga, mahsulotlarga iqtisodiy baho berish tartibi.

Davlatning g'alla mustaqilligi siyosati. Tarmoqlarning mustaqillik yillaridagi holati.

Bozor sharoitida o'simlikchilik tarmoqlarini rivojlantirish masalalari. Ekinlar diversifikatsiyasi. Donchilik, paxtachilik, sabzavotchilik tarmoqlari iqtisodi, talabni e'tiborga olgan holda ularni rivojlantirish yo'llari.

17-mavzu: Chorvachilik (qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik) tarmoqlari iqtisodi

Chorvachilik tarmoqlari. Chorvachilik borasidagi davlatning siyosati. Tarmoqlarda yetishtirilayotgan mahsulotlar. Ularning ahamiyati. Chorvachilik tarmoqlarining rivojlanishi. Chorvachilik mahsulotiga bo'lgan talab. Chorvachilik mahsulotlarining iqtisodiy samaradorlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Tarmoqlarning mustaqillik yillaridagi holati. Qo'ychilik, qoramolchilik, parrandachilik iqtisodi. Kelajakda chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish masalalari.

3	O`quv kursi bo`yicha ma`ruza va seminar mashg`ulotlarini o`qitish texnologiyasini ishlab chiqishning kontseptual qoidalar
---	--

O`zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxtlar oliy ta`lim tizimi o`quv bosqichlari uchun ham yangi talablarni keltirib chiqarmoqda. SHunday talablardan biri o`quv bosqichida ilg`or pedagogik va ta`lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hisoblanadi. Ta`lim bosqichida pedagogik va ta`lim texnologiyalaridan foydalanishdan asosiy maqsad ta`lim oluvchida etarli darajada bilim, malaka va ko`nikmalarni hosil qilish asosida talabalarda erkin va mustaqil fikr bayon qilish ko`nikmalarini shakllantirish hisoblanadi. Ta`lim bosqichlariga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo`llashda ta`lim oluvchining shaxsini hurmat qilish, har bir shaxsning erkin fikr bildirishiga imkoniyat yaratish, ijod bilan shug`ullanishi va o`z-o`zini rivojlantirishga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratish orqali talabani shaxs sifatida mustaqil fikrlashga undaydi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning 14-sessiyasida so`zlagan nutqida: «Bizning oldimizda ozod fuqoro shaxsining ma`naviyatini, boshqacha aytganda, ozod har tomonlama rivojlangan, o`z huquqlarini yaxshi biladigan, kuchi va qobiliyatiga ishonib tayanadigan, atrofdagi hodisalarga o`zining mustaqil fikri va munosabati mavjud, o`z manfaatlarini Vatan va xalq manfaatlarini bilan uyg`unlashtiradigan shaxsni tarbiyalash vazifasi turibdi» deb ta`kidlagan edi. Kadrlar tayyorlash dasturida ham o`quv bosqichida ilg`or pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish ko`p marta takrorlab o`tilgan. Bularning barchasi «Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti» maxsus kursi bo`yicha o`quv bosqichini texnologiyasini ishlab chiqishga sabab bo`ldi. Ushbu kurs bo`yicha o`quv bosqichining texnologiyasini ishlab chiqishdagi asosiy kontseptual qoidalar quyidagilardan iborat:

SHaxsga yo`naltirilgan ta`lim. Ta`lim bosqichida qatnashuvchi barcha sub`ektlarning keng qamrovli rivojlanishini ko`zda tutadi. Bu bosqichda talaba o`z o`quv faoliyatining sub`ekti sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda yagona ta`lim bosqichini tashkil qilishda qatnashadi hamda har bir shaxsning erkin fikr bildirishiga imkon yaratiladi.

Tizimli yondoshuv. Ta`lim texnologiyasi to`liqlilik, tizimli yondoshuv va o`zaro bog`liqlik kabi belgilarni qamrab olishi kerak.

Faoliyatli yondoshuv. Faoliyat shaxsni rivojlantirishdagi eng muhim va hal qiluvchi vosita - asos hisoblanadi. SHu sababli ta`lim oluvchi shaxsning mustaqil fikrlashi uchun zarur sifatlarni shakllantirishda uning faoliyatini intensivlashtirish va faollashtirish, o`quv bosqichida uning barcha imkoniyatlarini, sifatlarini namoyon etishiga, qarama-qarshi yoki monand fikr aytishiga sharoit yaratish lozim.

Dialog yondoshuv. Ta`lim bosqichining talaba va o`qituvchi o`rtasidagi muloqat shaklida tashkil qilinishini va ularning o`zaro hamkorligi, psixologik yakdillik muhitini yaratishni taqozo qiladi. Dialogik yondoshuv asosida tashkil qilingan darsda ko`rilayotgan masalaning mohiyatiga etib borish, tushunish, anglash va kerak bo`lsa yangi fikrlar bilan to`ldirish imkoniyati yuzaga keladi.

**Hamkorlikdagi ta`limni tashkil qilish.** Talaba va o`qituvchi munosabatlarini demokratlashtirish, tenglik, o`zaro hurmat, hamkorlik, o`zaro yordamga asoslangan holda, faoliyat mazmunini, maqsadini va erishilgan natijalarni hamkorlikda baholaydi. Asosiy tamoyillari: guruhga umumiy topshiriq, umumiy rag`batlantirish, o`zining va guruhning boshqa a`zolarining natijalariga mas`uliyat, faoliyat hamkorligi va natijaga erishish uchun teng imkoniyat yaratish.

**Muammoli ta`lim.** Muammoli darsning asosiy maqsadi baxs va munozara asosida ishtirokchilarning yangi, mustaqil fikrlarga kelishi, ularning turli vaziyatlarni ilmiy va amaliy tahlil etish orqali o`z fikrlarini aytib berishga o`rgatish bo`lganligi sababli, talaba shaxsida erkin, mustaqil fikrlashni shakllantirish vositasi hisoblanadi. Muammoli dars mantiqiy fikrlashni, ilmiy mushohada qilishini, echimlarni amaliy faoliyatga ijodiy qo`llash bo`yicha ko`nikmalarni rivojlantiradi va shakllantiradi,

**YAngi vosita va usullarni qo`llash.** Ta`lim bosqichida kompyuter va informatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ma`lumotlarni ko`rgazmali shaklda etkazib beradi. Berilgan

kontseptual qoidalarga hamda «qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» maxsus kursining maqsadi, vazifalari, hajmi va mazmuniga asoslangan holda ta'lim usuli va texnikasi; tashkil qilish shakli; vositasi; kommunikatsiya usullari; berilgan ma'lumotlarni nazorat qilish usul va vositalari; baholash va nazorat qilish tartiblari aniqlandi.

Ta'lim usuli va texnikasi. Baxs-munozara, Muammoli usul, Aqliy hujum usuli, Insert, T-sxema, Diagramma-Venna, Baliq skeleti, Konvert texnikasi, Keys-stadi, ma'ruza (ko'rgazmali, tematik, muammoli, informatsion).

Ta'limni tashkil qilish shakli. Jamoa va guruhlar bo'yicha, dialog va polilogga asoslangan, o'zaro suhbat, hamkorlikda va bir-birini o'qitish.

Ta'lim vositasi. Darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruza matni, masalalar to'plami, kodoskop, grafikli chizmalar, kompyuterli va informatsion texnologiyalar.

Kommunikatsiya usullari. Bevosita o'qituvchi va talaba o'rtasidagi tezkor teskari (qarama-qarshi) aloqaga asoslanadi.

Berilgan ma'lumotlarni nazorat qilish usul va vositalari. Kuzatish, blits-so'rov, joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalarini tahlil qilish asosida tashhis qilish.

Boshqarish vosita va usullari. O'quv mashg'ulotlari texnologik xarita shaklida rejalashtirilgan, unda o'quv bosqichining asosiy bosqichlari, ko'riladigan masalalari va ularni nazorat qilish (joriy, oraliq va yakuniy) tartiblari aniq ko'rsatilgan.

Baholash va nazorat qilish. Har bir o'quv mashg'uloti bosqichidagi o'qitish natijalarini (o'quv topshiriqlarni bajarishi va testlarni baholash, har bir o'quv mashg'ulotdagi talabaning o'quv faoliyati reytingini baholash) hamda butun maxsus kurs davomidagi (har bir talabaning joriy, oraliq va yakuniy natijalarini reyting tizimi orqali baholash) natijalarni baholash.

MA`RUZA VA AMALIY MASHG`ULOTLARIDA TA`LIM TEXNOLOGIYASI

1- mavzu	Kursning predmeti, maqsadi, vazifasi hamda tadqiqot usullari
-----------------	---

1.1. Ma`ruzani o`qitish texnologiyasi

O`quv soati:	Talabalar soni: 100 ta
O`quv mashg`ulotining shakli	Informatsion ma`ruza
O`quv mashg`ulotining rejasi	1. Qishloq xo'jaligi jahon iqtisodiyotining, respublika xalq xo'jaligining muhim tarmog'i ekanligi. Uning maqsadi va vazifasi. 2. Qishloq xo'jaligini tarmoq sifatida o'ziga xos xususiyatlari. Jahon qishloq xo'jaligining inqiroz sharoitidagi holati 3. Inqiroz sharoitida qishloq xo'jaligini iqtisodiy, ijtimoiy ahamiyati. 4. Tarmoqda erkin bozor iqtisodiyotini shakllantirish bosqichlari. 5. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan hukumatning tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlari. 6. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. 7. Fandagi foydalaniladigan tadqiqot usullari. Uning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.
O`quv mashg`ulotining maqsadi	Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati, zarurligi va funktsiyalari to'g'risida talabalarning bilimlarini shakllantirish
Pedagogik vazifalar: - qishloq xo'jaligining tarmoq sifatida o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish; - inqiroz sharoitida qishloq xo'jaligining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish; - o`quv fanining maqsadi, vazifalari va boshqa fanlar tizimida tutgan o`rnini tushuntirish; - o`quv fanining tarkibi va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtirish; - qishloq xo'jaligining iqtisodiy ahamiyati, zaruriyati va uning belgilari to'g'risida tushuncha berish; - qishloq xo'jaligining ob'ektiv zarurligini yoritib berish; - bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi sohasini tashkil etuvchi asosiy omillar va ob'ektlarga xarakteristika berish; - qishloq xo'jaligining iqtisodiyot rivojlanishiga qo'shadigan ulushini yoritib berish; - yalpi mahsulotni taqsimlashda qishloq xo'jaligining tutgan o`rnini tushuntirib berish.	O`quv faoliyati natijasi:</b> - qishloq xo'jaligi jahon iqtisodiyotining, respublika xalq xo'jaligining muhim tarmog'i ekanligi tushuntiriladi; - tarmoqda erkin bozor iqtisodiyotini shakllantirish bosqichlari yoritib beriladi; - fanning maqsadi, vazifalarini va boshqa fanlar tizimidagi tutgan o`rnini bilib shakllantira oladi; - o`quv fanining strukturasi tushuntiradi; - foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini va o`quv faoliyatini baholash shakllarini tushuntiradi; - qishloq xo'jaligini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyatini, uning omillarini izohlab beradi; - inqiroz sharoitida qishloq xo'jaligini iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati tushuntiriladi; - qishloq xo'jaligining makroiqtisodiyotni rivojlantirish, bozor infratuzilmasini yaratish va boshqa umumdavlat maqsadlari uchun moliyaviy resurslar to'plash vositasidan biri ekanligini yoritib beradi; - qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining funktsiyalari va asosiy vazifalariga xarakteristika beradi; - aholini ish bilan ta'minlashda qishloq xo'jaligining ta'sir doirasini ochib beradi; - fanning predmeti va maqsadi yoritilib beriladi va uni o`rganish usullari to'g'risida xarakteristika beriladi.
O`qitish uslublari	Ma`ruza, aqliy hujum, Blits-so`rov, namoyish etish.
O`qitish vositalari	O`quv qo'llanma, ma`ruza matnlari, kompyuter texnologiyasi, grafiklardan foydalanish.
O`qitish shakli	Jamoa bo'lib ishlash, guruhlarda ishlash

O`qitish shart-sharoitlari	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o`qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya
Monitoring va baholash	Test va nazorat savollari shaklida

1.1.1. Ma`ruzaning texnologik xaritasi. (1-mashg`ulot)

Ish bosqich-lari	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1.O`quv kursining asosiy mazmuni, tarkibiy tuzilishi va o`tiladigan mavzular bilan tanishtiradi. 1.2.O`quv kursi bo`yicha joriy, oraliq va yakuniy nazorat shakllari va reyting ballari bilan tanishtiradi. (1.(1.1.1) - Ilova) 1.3.Asosiy adabiyotlar ro`yxati taqdim etiladi. 1.4.O`tiladigan mavzuning maqsadi va kutiladigan natijani e`lon qiladi. 1.5. O`quv mashg`ulotida baholash me`zoni e`lon qilinadi. 1.6.O`quv mashg`ulotini o`tkazish tartibini tushuntiradi.	Eshitadi.
2-bosqich. Asosiy bosqich (60 minut)	2.1. Mashg`ulotning asosiy vazifalarini echish uchun talabalar guruhlariga qishloq xo`jaligining o`ziga xos xususiyatlari bo`yicha har xil fikrlarni ko`rib chiqish topshiriladi. 2.2. Bajarilgan ishga talabalar baho beradilar. Guruhni baholash jadvali ilova qilinmoqda (2 (1.1.1) - Ilova). 2.3. Mavzu yoritiladi. 2.4. Qishloq xo`jaligi sohasining ob`ektiv zarurligini tushuntiradi. Ma`ruza aqliy hujum usulidan foydalanilgan holda olib boriladi. (3 (1.1.1) - Ilova). 2.4.Tarqatma material beriladi.	Talabalar 3 guruhga bo`linadi va berilgan texnologik usullar bo`yicha ishlaydilar. Guruh bosh-liqlari ularni himoya qiladi.
3-bosqich. YAKuniy bosqich (10 minut)	3.1. O`tilgan mashg`ulot bo`yicha yakun yasaydi, ular qaerlarda kerak bo`lishi aytiladi. 3.2.Talabalar faoliyati tahlil qilinadi. 3.3.Mustaqil tayyorgarlik uchun uyga quyidagi vazifalar beriladi; - O`zbekistonda qishloq xo`jaligini rivojlantirish bosqichlarini o`rganish; - qishloq xo`jaligining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o`rni va ahamiyatini bilish.	Talabalar eshitadi, yozib oladi.

1 (1.1.1) - Ilova

Baholash mezonlari: «Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti» fani bo`yicha talabalar quyidagi reyting ballarida baholanadi:

40% - 40 ball - joriy baho;
30% - 30 ball – oraliq baho;
30% - 30 ball – yakuniy baho.
86-100% - 86 – 100 ball – «a`lo»
71-85% - 71 – 85 ball – «yaxshi»
55-70% - 55-70 ball – «qoniqarli»

(1.1.1) - Ilova

Guruhni baholash jadvali.

Guruh	Javoblarning aniq, ravshanligi (1,0)	Axborotning ishonchliligi (0,5)	Guruh a`zosining faolligi (0,5)	Umumiy ballar	Baho
1					
2					
3					

0,5 - 0,9 ball – o`rta

Qishloq xo`jaligi sohasining ob`ektiv zarurligini aqliy hujum qoidasi asosida yoritish.

[illegible]

0,5 - 1,1 ball - o`rta

8.Qishloq xo'jaligida rekreatsion resurslar deganda nimani tushunasiz?

1- mavzu	Qishloq xo'jaligining jahon, respublika iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati
----------	--

1.2. Amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologiyasi

	Talabalar soni: 25 ta
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Amaliy mashg'ulot
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	1. Qishloq xo'jaligining O'zbekiston iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati. 2. Moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi tarmoq sifatida qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyati. 3. Qishloq xo'jaligini qit'alar, hududlar doirasidagi holati. 4. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy munosabatlar, ularni rivojlanishi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Talabalarning qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati to'g'risidagi nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish.
<i>Pedagogik vazifa:</i> - qishloq xo'jaligi to'g'risidagi nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash; - qishloq xo'jaligi sohasining omillari to'g'risidagi nazariy qarashlarni o'rganish; - qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining ob'ektiv zarurligini va iqtisodiyotda tutgan o'rni ochib berish;	<i>O'quv faoliyati natijasi:</i> - qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlari to'g'risidagi nazariy bilimga ega bo'ladi; - qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyatini va ob'ektiv zarurligini anglaydi va yoritib beradi; - qishloq xo'jaligi vositalari, omillari va muammoli vaziyatlarni hal qilish yo'llarini ko'rsatib beradi; - qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarning mohiyatini yoritib beradi; - O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlantirish imkoniyatlari haqida tushunchaga ega bo'ladi.
<i>O'qitish usullari</i>	Amaliy mashq, «jamo bo'lib ishlash» usuli;
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, ekspert varaqlari, grafiklardan foydalanish, Venna-diagrammasi, T-sxema.
<i>O'qitish shakli</i>	Guruhlarda ishlash usuli.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, guruhlarda ishlash usulini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Nazorat savollari

1.2.1. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi (1-mashg'ulot)

Ish bosqich-lari	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich (40 min)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Amaliy mashg'ulotni o'tkazish xususiyatlari bilan talabalarni tanishtiradi. 1.3. Mavzu bo'yicha topshiriqlarni tarqatadi. 1.4. Savollar berib talabalarning bilimlarini faollashtiradi.(1(2.1.1) - Ilova)	Eshitishadi va yozib olishadi
2-bosqich (50 min)	2.1. Mashg'ulotning asosiy vazifalarini echish uchun talabalar guruhlariga qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha har xil fikrlarni ko'rib chiqish va tugagandan so'ng prezentatsiya qilishni topshiradi. 2.2. Bajarilgan ishga talabalar baho beradilar. 2.3 Venna-diagramma asosida qishloq xo'jaligi korxonalari o'rtasidagi umumiylik va hamkorlik xususiyatlari aniqlanadi. (2 (2.1.1) - Ilova) 2.4. Talabalar faoliyatini kuzatadi, yo'naltiradi, maslahatlar beradi	Talabalar 4 guruhga bo'linib ishlaydilar. Talabalar javob izlaydi va o'zi ham fikrini guruh rahbarlari orqali qo'shadi.

	2.5. Taqdimotni e`lon qiladi.	
3-bosqich 10 min.	O`tilgan mashg`ulot bo`yicha nazorat savollariga javob berish va yakun yasash. 3 (2.1.1) - Ilova	Eshitadi va yozib oladi.

1(2.1.1) - Ilova

Bilimlarni faollashtiruvchi savollar:

1. Qishloq xo`jaligi sohasini rivojlantirish uchun qanday yo`nalishlar mavjud?
2. Qishloq xo`jaligining moddiy texnika bazasini takomillashtirish nima?
3. O`zbekistonda qishloq xo`jaligining rivojlantirish bosqichlarini izohlang?
4. Iqtisodiyotni rivojlantirishda qishloq xo`jaligining ta`siri qanday?
5. O`zbekistonda qishloq xo`jaligining qaysi tarmoqlari keng rivojlantirish maqsadga muvofiqdir?
6. Xo`jaliklarga mahsulotlarni taqdim etish uchun qanday vazifalar belgilanadi?
7. Mamlakatimizda xo`jalik mintaqalarning joylashuvi qanday?
8. Qishloq xo`jaligida rekreatsion resurslar deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil ishlash uchun nazorat savollari

1. Qishloq xo`jaligini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari deganda nimani tushunasiz?
2. Qishloq xo`jaligining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati nimalardan iborat?
3. Qishloq xo`jaligini rivojlantirishdan asosiy maqsad nima?
4. Dehqon va fermer xo`jaligi to`g`risidagi qonun qachon qabul qilingan?

Baho: 2,6 – 3,0 ball – a`lo baho
1,7 – 2,5 ball – yaxshi baho
0 – 1,6 ball – o`rta baho

2 (1.2.2) - Ilova

“Charxpalar” uslubi qoidasi.

3-4 guruhda talabalar ish olib boradi. Xar bir guruhga tugallanmagan fikrlardan iborat savollar yozilgan vatman qog`ozi va to`rt xil flamaster yoki marker beriladi. Savollar aylanib xar bir guruhdan o`tadi, javoblar to`ldiriladi va savol o`z guruhiga kelgach o`yin to`xtatiladi. So`ng javoblar yig`ib olingach, doskaga yopishtiriladi va muxokama qilinadi. Xar bir guruhdan vakil chiqib yozlarining javoblarini o`qib beradi. Eng asosli javob bergan guruh g`olib hisoblanadi.

3 (1.2.2) - Ilova

O`quv topshiriqlar

1 – guruh topshirig`i:

1-masala.

Fermer xo`jaliklarining rentabelligi va uning o`zgarishiga ta`sir etuvchi omillarni tahlil qiling?

Ko`rsatkichlar	o`tgan yil	hisobot yili
1.Sotilgan turmahsulotning tannarxi, mln.so`m	2750	2650
2. Fermer xo`jaligining mahsulotni sotishdan olgan foydasi, mln. so`m	500	450
3.Rentabellik darajasi, foiz	?	?

Foyda hajmining o`zgarishi va uning rentabellikka ta`sirini toping:

2 – guruh topshirig'i:

Qishloq xo'jaligi korxona aktivlariga nisbatan rentabellikni tahlil qiling:

Ko'rsatkichlar	o'tgan yil	hisobot yili	farqi (+,-)
1. Fermer xo'jaligining korxona aktivlari jami, ming so'm	8050	9540	+1490
2. Sof foyda, ming so'm	490.0	760.0	+270
3. Rentabellik darajasi, foiz	?	?	?

Muhokama uchun nazorat savollari.

1. Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyalashtirish manbalariga nimalar kiradi?
2. Fermer xo'jaligida eng ahamiyatli xususiyat va kritik omil nima?
3. Fermer xo'jaligi sohasiga davlat tomonidan qanday imtiyozlar belgilanadi?
4. Qishloq xo'jaligining iqtisodiyotni rivojlanishida roli qanday?
5. O'zbekistonda qishloq xo'jaliklariga qanday imtiyozlar joriy qilingan?

2- mavzu	Jahon, respublika qishloq xo'jaligi, uning joylashishi, ixtisoslashishi, uni jahon moliyaviy-ishlab chiqarish inqirozi sharoitida rivojlanishi
----------	---

2.1. Ma'ruzani o'qitish texnologiyasi

	Talabalar soni: 100 ta
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Informatsion ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Qishloq xo'jaligini joylashtirish, ixtisoslashtirish hamda kooperasiyalashtirish. 2. Qishloq xo'jaligini joylashtirish va ixtisoslashtirishning tamoyillari va omillari. 3. Ixtisoslashtirish turlari. Qishloq xo'jaligida kooperasiyalashtirish va agrosanoat integrasiyalashtirish. 4. Gorizontaal hamda vertikal integrasiyalashtirish. Xo'jaliklararo kooperasiyalashtirish. 5. Qishloq xo'jaligini joylashtirish, ixtisoslashtirish darajasi va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash uslubiyoti. 6. Inqiroz davrida jahon, respublika viloyatlari hududlarida qishloq xo'jaligini joylashtirishning, ixtisoslashtirishning holati. 7. Qishloq xo'jaligini joylashtirish, ixtisoslashtirish va kooperasiyalashtirishni rivojlantirish yo'llari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi</i>	Talabalarining respublika qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish, joylashtirish va kooperatsiyalashtirishning asosiy omillari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish.

Pedagogik vazifa: - qishloq xo'jaligini joylashtirish, ixtisoslashtirish hamda kooperasiyalashtirish to'g'risida tushuncha berish; - ixtisoslashtirish turlari hamda qishloq xo'jaligida kooperasiyalashtirish va agrosanoat integrasiyalash-tirish bo'yicha ma'lumotlar berish; - gorizontaal hamda vertikal integrasiya va xo'jaliklararo kooperasiyalash to'g'risida tushuncha berish; - qishloq xo'jaligini joylashtirish, ixtisoslashtirish darajasi va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash uslubiyoti tushuntirish; - inqiroz davrida jahon, respublika viloyatlari hududlarida qishloq xo'jaligini joylashtirishning, ixtisoslashtirishning asosiy maqsadini tushuntirib berish; - qishloq xo'jaligini joylashtirish, ixtisoslashtirish va kooperasiyalashtirishni rivojlantirish yo'llari to'g'risida nazariy va amaliy tomondan tushuntirib berish	O'quv faoliyatining natijasi: - qishloq xo'jaligini joylashtirish, ixtisoslashtirish hamda kooperasiyalashtirish to'g'risida bilimga ega bo'ladi; - ixtisoslashtirish turlari hamda qishloq xo'jaligida kooperasiyalashtirish va agrosanoatni integrasiyalash-tirish bo'yicha o'z fikrlarini beradi; - gorizontaal hamda vertikal integrasiya va xo'jaliklararo kooperasiyalash to'g'risida o'z tushunchasini aytib beradi; - qishloq xo'jaligini joylashtirish, ixtisoslashtirish darajasi va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash uslubiyotini izohlab beradi; - inqiroz davrida jahon, respublika viloyatlari hududlarida qishloq xo'jaligini joylashtirishning, ixtisoslashtirishning asosiy tushunchalarni aytib beradilar; - qishloq xo'jaligini joylashtirish, ixtisoslashtirish va kooperasiyalashtirishni rivojlantirish yo'llarini izohlab beradi.
O'qitish usullari	Ma'ruza, blits-so'rov, Delfin texnikasi;
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, kompyuter texnologiyasi, ekspert varaqlari, grafiklardan foydalanish.
O'qitish shakli	«Jamoalar bo'lib ishlash», to'g'ri yo'naltirilgan va guruhlarda ishlash usullari.
O'qitish shart-sharoitlari	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya.
Monitoring va baholash	Mulohaza savollari

2.1.1. Ma'ruza texnologik xaritasi. (1- mashg'ulot)

Ish bosqichlari	O'qituvchi faoliyatining mazmuni	
		Talaba faoliyatida
1 - bosqich Kirish (10 min)	1.1. Ma'ruza mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi. 1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini tushuntiradi (1 (2.1.1) – Ilova). 1.3. Har bir talabaga mavzu bo'yicha tarqatma materiallarni tarqatadi. 1.4. Mavzu bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining rejasiga izoh beradi.	Eshitishadi
2- Asosiy bosqich (60 min)	2.1. Quyidagi savollarga o'ylab javob berishlarini so'raydi: -Qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish ning nechta turi mavjud? (2 (2.1.1) –Ilova). -Gorizontaal va vertikal integratsiya nima? -inqiroz sharoitida qishloq xo'jaligini joylashtirish va ixtisoslashtirishdan asosiy maqsad nima? blits-so'rov	Savollarga javob berishadi.

	o'tkazadi. Savol-javob bosqichida aniqlashtiriladi va yo'naltiriladi. 2.2. Talabalarni 15-16 kishidan 6 guruhga taqsimlaydi. Talabalar guruhlarga bo'linib ixtisoslashtirish turlarini yozib chiqishadi. Guruhlar bir-birini baholaydi. 2.3. Talabalarga erkin fikr aytishga ruxsat beriladi va ularni rag'batlantiradi. 2.4. Prezentsiya boshlanishi to'g'risida e'lon qiladi. Maslaxatchi sifatida qatnashadi. Izoh beradi, aniqlashtiradi va o'zgartishlar kiritadi. 2.5. Har bir guruhning chiqishidan keyin har bir savol bo'yicha xulosa qiladi, talabalarning e'tiborini ushbu mavzudagi masalaning mazmuniga qaratadi.	Guruhlar kelishgan holda ishlashadi: o'qiydi va qo'yilgan savollarga ma'ruza matnidan javoblar qidirishadi. Fikr almashishadi. Muhokama natijasida olingan ma'lumotlarni so'zlab berish uchun T-sxema tuzishadi. Guruhlarning sardori tayyorlangan ma'lumotlar asosida qo'yilgan masalaning echimlari bo'yicha o'z fikrlarini berishadi.
3 - bosqich YAkuniy bosqich (10 min)	Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi. 3.1. Guruhlarga o'zaro baholash natijasini e'lon qilishlarini so'raydi. Natijalarga izoh beradi (4 (2.1.1) – Ilova). 3.2. Mustaqil bajarish uchun topshiriq beradi: - Nazorat savollariga og'zaki javob berish (3 (2.1.1) – Ilova). 3.3. Navbatdagi ma'ruza mashg'ulotida ko'riladigan masalani e'lon qiladi va mustaqil tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi.	Guruhlar o'zaro baholash natijalarini e'lon qilishadi Mustaqil ishlash uchun nazorat savollarini yozib olishadi.

1 (2.1.1) - Ilova

Ma'ruza mavzusi bo'yicha talabalarning faoliyatini baholash mezonlari ko'rsatkichlari.
Ma'ruza mashg'uloti bo'yicha reyting:

- 1,7 - 2 ball – a'lo
- 1,4 - 1,6 ball – yaxshi
- 0,5 - 1,1 ball - o'rta

2 (2.1.1) - Ilova

T-sxemadan foydalanib qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirishning nechta turi mavjudligini jadvalga yozing?

- | | |
|------------------------------------|--------------------------------|
| 1. Zonalar bo'yicha ixtisoslashuv | 5. Tarmoq ichida ixtisoslashuv |
| 2. Xo'jalik ichidagi ixtisoslashuv | 6. Tumanlararo ixtisoslashuv |
| 3. Tashqi ixtisoslashtirish. | 7. Viloyatlararo ixtisoslashuv |
| 4. Xo'jaliklararo | 8. Mintaqalararo ixtisoslashuv |

Ixtisoslashtirishning turlari

To'g'risi	Noto'g'risi
1.	1.
2.	2.
3.	3.

3 (2.1.1) - Ilova

Mustaqil ishlash uchun nazorat savollar:

1. Qishloq xo'jaligini joylashtirish, ixtisoslashtirish va kooperatsiyalashtirishning asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Qishloq xo'jaligini jahon va respublika xududida maqsadga muvofiq joylashtirish, ixtisoslashtirish, hamda kooperatsiyalashtirishning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati nimadan iborat?
3. Qishloq xo'jaligini joylashtirish va ixtisoslashtirishning tamoyillari, omillari va turlarini bayon eting?
4. Gorizontaal hamda vertikal integratsiyalashtirishning asosiy maqsadi nimadan iborat?
5. Xo'jaliklararo kooperatsiyalash, deganda nimani tushunasiz?
6. Qishloq xo'jaligini joylashtirish, ixtisoslashtirish darajasi va samaradorligi qanday aniqlanadi?
7. Qishloq xo'jaligini joylashtirish, ixtisoslashtirish va kooperatsiyalashtirish, istiqboldagi rivojlantirish yo'llarini bayon eting?

4 (2.1.1) - Ilova

Ekspert guruhi ish natijalarini baholash mezonlari

Mezonlar	Maks ball	Guruh natijalarini baholash			
		1	2	3	4
Ma'lumotlarning to'liqligi	1,0				
Ma'lumotlarning berilishi (grafiklar asosida)	0,6				
Guruhlarning faolligi (savol, javob, qo'shimchalar)	0,4				
Maksimal bal	2,0				

2- mavzu	
----------	--

2.2. Amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologiyasi

	Talabalar soni: 25 ta
<i>O`quv mashg`ulotining shakli</i>	Amaliy mashg`ulot
